



## CLIMATE OF PARKENT DISTRICT

**Kh. E. Yoldosheva**

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** climate, solar radiation, atmospheric pressure, temperature, humidity, precipitation, wind, meteorology, bioclimate.

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

**Abstract:** This article provides information about the climate of the Parkent district, how it changes with the seasons, the daily illumination of the earth's surface by the sun, and the distribution of the seasons.

---

## PARKENT TUMANINING IQLIMI

**X. E. Yo'ldosheva**

*Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** iqlim, quyosh radiatsiyasi, atmosfera bosimi, harorat, namlik, yog'in miqdori, shamol, meteorologiya, bioiqlim.

**Annotatsiya:** Bu maqolada Parkent tumanining iqlimi haqida, fasllar bo'yicha qanday tafovutlar bilan o'zgarib borishi, quyoshning yer yuzasini kunlik yoritishi, yil fasllarining taqsimlanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

---

## КЛИМАТ ПАРКЕНТСКОГО РАЙОНА

**X. E. Юлдошева**

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** климат, солнечная радиация, атмосферное давление, температура, влажность, осадки, ветер, метеорология, биоклимат.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о климате Паркентского района, его изменении по временам года, суточной освещенности земной поверхности солнцем, распределении времен года.

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Ma'lumki, Parkent tumani hududi keskin kontinental (quruq) iqlim mintaqasiga kirishi bilan birga, o'ziga xos qator xususiyatlarga ham ega. Hududning geografik jihatdan tog'lar bilan o'ralganligi, yer sathining past va balandliklardan tashkil topganligi, katta- kichik soy va buloqlarning seroblighi tumanning iqlimi va ob-havosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda erta bahor va kech kuzning ba'zi kunlarida yilning to'rt fasliga xos ajoyib manzaralarni kuzatish mumkin. Bahorda tog'oldi tekisliklarida bog'lar gullab, bahor libosiga o'ralgan davrda, o'rta balandlik hududlarida boychechaklar endi nish urgan, yuqori qishloqlar esa hali ham oppoq qor bilan qoplangan bo'ladi. Umuman, tumanning quyi tekisliklaridan tog' hududlariga ko'tarilgan sari yoz fasli davomi nisbatan qisqarib, qish fasli uzayib boradi. Bu tog'li hududlarning iqlimiga xos xususiyat hisoblanib mavzu davomida ko'rib chiqamiz[1].

## ASOSIY QISM

**Maqsad va vazifalar.** Parkent tumani tog'li hudud hisoblangani uchun ham uni iqlimi boshqa tuman va viloyatlar iqlimidan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham o'zim yashaydigan hududni iqlimini o'rganishga qaror qildim va quyidagi vazifalarni o'z oldimga qo'ydim.

- Tumanaga tushadigan quyosh radiatsiyasini tahlil qilish;
- Atmosfera bosimi va havo harortini tahlil etish;
- Yog'ingarchilik, iqlimning yillik o'zgarishini tahlil etish.

### **Natijalar va ularning muhokamasi.**

Parkent tumani - 1926 yilda tashkil etilgan. Shimolda, sharq va janubda Bo'stonliq, Ohangaron, g'arbdan Yuqori Chirchiq va janubi-g'arbdan O'rta Chirchiq tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 1,08 ming km.kv. Tumanda 1 ta shahar (Parkent), 9 qishloq fuqarolari yig'ini (Boshqizilsoy, Bo'ston, Zarkent, Nomdanak, Parkent, So'qoq, Hisarak, Changi, Koraqalpoq)bor. Tuman markazi - Parkent shahri.

Parkent tumani O'rta Tyanshanning Chatqol tizmasi g'arbiy etaklarida joylashgan. Hududi tog'lar bilan o'ralgan. Yer yuzasi g'arbdan sharqqa balandlashib boradi. Eng baland joyi -3627,8 m (Qizilnura cho'qqisi). Reliefi tog' oldi tekisligi, adir va tog'lardan iborat[1]. Iqlimi tog' oldi va tog' iqlimiga xos, nisbatan kontinental. Tekisliklarda tipik bo'z tuproq, adirlarda to'q bo'z tuproq, tog' zonasida esa tog'-o'rmon tuproqlari tarqalgan.

Quyosh radiatsiyasi iqlimni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Quyoshning yerga nur sohib turish vaqti havoning bulutligi va ufqning ochiq- yopiqligiga bog'liq. Parkent hududida bir yil mobaynida quyosh o'rtacha 3000 soat o'z nurini yerga sohib turadi. Lekin fasllar bo'yicha bu vaqt teng taqsimlanmagan. Yerning quyoshga nisbatan og'ish burchagi o'zgarishiga

qarab yer yuzasi yoritilish muddatli ham o'zgarib boradi. Bu vaqt yanvar, oyida o'rtacha 140 soat, iyulda esa 390 soatga teng (1-jadval).

Yanvar oyida bir kunlik yer yuzasini yoritish vaqti o'rtacha 5,1 soatni, iyulda esa 12,5 soatni tashkil etadi. 22 iyunda eng ko'p, 22 dekabrda esa eng kam quyosh radiatsiyasi kuzatiladi. Qishki oylarda, havoni bulut qoplab, quyosh ko'rinmaydigan 8-9 kun kuzatilsa, yoz chillasida bulutli kunlar deyarli uchramaydi.

1-jadval

**Quyoshning yer yuzasini kunlik yoritish o'rtacha oylik muddati (soat) va shu oylarda quyoshsiz ( to'la bulutli ) kunlar soni**

Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Kunda quyoshli vaqt, soat	5,1	5,7	6,4	8	10,1	12	12,5	11,9	10,1	7,7	6,2	4,9
Quyoshsiz kunlar, oyda	8	6	5	2	0,5	0,1	0,1	0,1	0,1	5	7	9

Manba: .Xusomiddinov S, Shermatov M. Parkent tumani. "O'qituvchi". Toshkent- 2006.

Atmosfera bosimi ham hududning balandligi va yil fasllariga ko'ra o'zgarib boradi. Tabiat qonuniyatlariga asosan, balandlikka ko'tarilgan sari atmosfera bosimi pasayib boradi. Masalan, dengiz sathiga nisbatan 520 m balandlikda joylashgan Qoraqalpoq qishlog'ida o'rtacha ko'p yillik havoning bosimi 957ga, 1352m. balandlikda joylashgan So'qoq meteorologik stansiyasida esa 935 ni tashkil etadi. Qoraqalpoq qishlog'i sathida yil davomida eng past havo bosimi (949) iyun oyida , eng balandi esa qish chillasida ( 967) kuzatiladi . Sentyabr - oktyabr oylari atmosfera bosimining eng shiddatli o'sish davri hisoblanadi[2,3].

Havo haroratining o'rtacha ko'p yillik miqdori , Parkent shahri sathida 12,8°C ni tashkil etadi. Yil davomida faqat yanvar oyidagi o'rtacha oylik harorat manfiy ( -0,6°C ) qiymatga ega bo'ladi. Boshqa oylarda esa havoning o'rtacha oylik harorati 0°C dan balandligi kuzatiladi. Fevral oyidan havo isishni boshlaydi va aprel oyida uning harorati, ayniqsa, shiddatli o'sadi. O'rtacha sutkalik havoning eng baland harorati ( 27°C) oyida namoyon bo'ladi. Avgust oyidan u pasya boshlaydi va oktyabr oyida bu jarayon keskinlashadi. Har bir oyda kuzatiladigan o'rtacha oylik havo harorati yildan - yilga o'zgarishi mumkin. Ayniqsa, qishki oylar o'zgaruvchan bo'ladi. Lekin o'rtacha yillik harorat juda kam miqdorda o'zgaradi[4].

Ko'p yillik kuzatishlar oktyabr oylarida havo haroratining 0°C dan pasayib, 20 oktyabrdan kegin yillik iliq kunlar bilan almashib borishini ko'rsatdi. Yerning ustki qatlamining muzlashi, odatda bu sanadan ikki hafta ilgariroq boshlanadi.

Shamol tuman hududida nisbatan kichik (1-2 m/s) tezliklar bilan esib turadigan hodisa. 50% dan ortiq shamollarning tezligi 0-1 m/s atrofida bo'ladi. 5 m/s dan ortiq tezlikga ega bo'lgan

shamollar 2% ni, 15 m/s tezlikdagi shamollar esa atigi 0,01% ni tashkil etadi. Shamollar yo'nalishida sharqiy, shimoliy- sharqiy oqimlar ustunligi sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, kuz va qish fasllarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bahor va yoz fasllarida g'arbiy va shimoliy- g'arbiy shamollar ham takrorlanib turadi. Bir sutka mobaynida shamol yo'nalishi asosan tog'-vodiy sirkulyatsiyasi ta'sirida bo'ladi. Tungi paytlarda, asosan, tog'dan esgan shamol, kunduzi esa vodiy shamollari ustunlik qiladi.

Havo namligining ko'p yillik o'rtacha miqdori 58% ni tashkil etadi. Qish faslida havo namligi 68-70% ga yetadi, yozda esa 38-41% atrofida bo'ladi. Ba'zi qurg'oqchilik yillari yozda havo namligi 8% gacha kamayishi mumkin. Issiq kunlarda havo namligining pasayishi tuproqdagi namlikning bug'lanishini tezlatadi hamda nafas olishni yengillashtiradi.

Yog'ingarchilik qattiq (qor), suyuq (yomg'ir) va aralash holatda namoyon bo'ladi. Parkent hududida o'rtacha ko'p yillik yog'in miqdori 536 mm ni tashkil etadi. Tog' mintaqasiga ko'tarilgan sari miqdori ortib boradi. Mart oyida yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Bu oyda yog'in miqdori maromi o'rtacha 95 mm ni tashkil etadi. Noyabrning ikkinchi yarmidan boshlab martning ikkinchi yarmigacha yer yuzasini qor qoplashi mumkin. Ba'zi yillari qor mavsumi oktyabrdan mart oylarigacha davom etadi. Lekin, odatda, qorning asosiy miqdori yanvar oyida yog'adi. Yer sathi qor bilan butunlay qoplanish davri tog' hududiga ko'tarilishi bilan birga o'zgarib boradi. Parkent hududida bu mavsum o'rtacha 50 kun davom etadi. Meteorologik kuzatishlar davrida eng erta birinchi qor tushishi 13- oktyabrda, eng kechi esa 27- aprelda qayd etilgan.

Atmosfera hodisalarga bulutli havo, to'zon, tuman, momaqaldiroq va atmosferadagi boshqa meteorologik hodisalar kiradi. Tuman hududida havoning bulutliligi o'rtacha 5 ballni tashkil etadi. Qish faslida oyning 1-2 kuni, yoz faslida esa 25 kuni havo ochiq (bulutsiz) bo'ladi. To'zonlar yil davomida o'rtacha 5 ba'zi yillari 10-15 kunlar ichida kuzatilishi mumkin. Odatda, ular bir soatga yaqin davom etadi. Tumanlar ko'proq kechqurun, kechasi va ertalab takrorlanib turadi. Bir yilda o'rtacha 30 tumanli kun kuzatiladi. Hududda eng uzoq tuman uzluksiz 5 kun davom etgan. Momaqaldiroq ko'proq aprel –iyun oylarida, ba'zi yillarida esa qish faslida ham uchrab turadi. Bir yilda o'rtacha 15 kun momaqaldiroqli kunlar kuzatiladi va 4-6 marotaba do'l yog'ib o'tishi mumkin[4].

Iqlimning yillik o'zgarishi to'rt faslga bo'linadi. Ular iqlimshunoslikda havoning o'rtacha kunlik haroratini belgilangan mezonlardan o'tishi va o'simliklarni rivojlanishi bosqichlari bilan aniqlanadi. Qish faslining boshlanishi havoning o'rtacha kunlik haroratining 5°C chegaradan surunkali pasayishi, tugallanishi esa bahor boshlanishi shu chegaradan ko'tarilishi bilan belgilanadi. Haroratning 0 °C dan surunkali pasayishi bilan o'simliklar uyquga kiradi va bu davr to'liq qishga o'tish - "haqiqiy qish" fasli deyiladi. Yoz faslining boshlanishi va tugallanishi esa havoning o'rtacha kunlik haroratining 20°C dan ko'tarilishi va pasayishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, Parkent tumani viloyatining iqlimi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Binobarin, bu yerda dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va ular bilan bog'liq agrosanoat majmualari, shahar atrofi qishloq xo'jaligi, rekreasiya kabi sohalar yaxshi rivojlangan bo'lib kelgusida ularni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq [5].

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda tuman iqlimining umumiy bbiqlim xususiyatlari quyidagilardir. O'rta Osiyoning tekislik va va tog'oldi mintaqalari kabi, Parkent tumani ham aniq ajralgan ayrim hususiyatlarga ega. Bu yerda havoning yuqori harorati, quruqligi, kam bulutlilik yeri sirtining quyosh radiatsiyasi ta'sirida nurlanish to'laligicha namoyon bo'ladi. Yil davomida bioqlim sharoitlari bir necha marotaba o'zgaradi. Aprel va oktyabr oylarida eng orombaxsh bioqlim sharoitlari bilan ajralib turadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedov X. "Parkent tongi" 1982, 1-son, 4-bet.
2. Parkent tumanining 2021 pasporti.
3. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси Т., 2014.
4. Xusomiddinov S. M. Shermatov Parkent tumani. "O'qituvchi". Toshkent- 2006.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2002